

**KASBIY TA'LIM MUASSASALARINI O'QUV-METODIK TA'MINLAGAN
HOLDA POLITEKNIKUMLARGA AYLANTIRISH HAMDA MILLIY
TA'LIM DASTURLARINI XALQARO TA'LIM DASTURLARI
BILAN UYG'UNLASHTIRISH: G'IJDUVON TUMAN
3-SON POLITEKNIKUMI NEGIZIDA**

Rashidov Bahodir Idiqurbonovich

G'ijduvon tuman 3-son politexnikumi direktori

Rustamov Bekmurod Alisher o'g'li

O'quv bo'lim uslubchisi

rustamovbekmurod786@gmail.com

Isroilova Dilnoza Asliddin qizi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: U yoki bu ta'lim texnologiyasining tanlanishi eng avvalo maqsadga, ya'ni qanday darajada bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarining o'zlashtirilishi nazarda tutilganligiga bog'liq. Aniq maqsadni ko'zlamagan mashg'ulot samara bermaydi, chunki olingan natija bilan ko'zlangan maqsadni bir-biriga qiyoslab pedagogik jarayon (mashg'ulot) samaradorligini aniqlash mumkin, xolos. An'anaviy ta'lim maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalashga intilgan. Kasbiy ta'lim maqsadi avvalo jamiyat va davlatning talab hamda ehtiyojiga binoan shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: texnikum, tasniflagich, kasb-hunar maktab, kollej, professional ta'lim, GPA, kadrlar tayyorlash tizimi.

Аннотация: Выбор той или иной образовательной технологии зависит, прежде всего, от цели, то есть на каком уровне предполагается приобретение знаний, методов поведения и личностных качеств. Обучение без конкретной цели неэффективно, поскольку эффективность педагогического процесса (обучения) можно определить только путем сравнения полученного результата с намеченной целью. Традиционное образование стремится выразить цель через деятельность педагога. Цель профессионального образования формируется, прежде всего, в соответствии с запросами и потребностями общества и государства.

Ключевые слова: техникум, классификатор, профессиональное училище, колледж, профессиональное образование, средний балл, система подготовки кадров.

Abstract: The choice of one or another educational technology depends primarily on the goal, that is, on what level the acquisition of knowledge, behavioral methods and personal qualities is intended. Training without a specific goal is ineffective, because the effectiveness of the pedagogical process (training) can only be determined

by comparing the obtained result with the intended goal. Traditional education strives to express the goal through the activities of the pedagogue. The purpose of vocational education is first of all formed according to the demands and needs of the society and the state.

Key words: technical school, classifier, vocational school, college, professional education, GPA, personnel system training.

KIRISH

Buxoro viloyati G'ijduvon tuman 3-son politexnikumi 2019-yil 6-sentabr PF 8-12-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, bu yerda xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida foydali kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Hozirgi kunda politexnikumda quyidagi yo'nalishlar kadrlar tayyorlashga qaratilgan:

- Avtomobil shassisiga texnik xizmat ko'rsatish;
- Avtomobil dvigatellariga servis xizmat ko'rsatish;
- Elektromontyor;
- Payvandlovchi (elektrgazpayvandlash ishlari);
- Oshpaz-qandolatchi;
- Sartarosh-modelyer;
- Tikuvchi;
- Axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari.

Qo'shimcha tarzda asalarichilik, mebelsozlik, baliqchilik sohalari va shlakablok sexida mutasaddi xodimlar o'z ish faoliyatini olib bormoqda.

Bu yo'nalishlar bo'yicha bir necha yil davomida ko'zga ko'rinarli natijalarga erishib kelinmoqda. Politexnikum hududidagi issiqxona muntazam ravishda ish faoliyatida. U yerda pomidor, bodring, qulupnay, limon va turli xildagi gul ko'chatlaridan mo'l-ko'l hosil yig'ib olinadi.

Texnikum - bu professional ta'lim bo'lib, o'rta maxsusdan yuqori, oliy ta'limdan past daraja hisoblanadi. Texnikumlarga o'rta ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar, ya'ni 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi. Texnikumlarda o'qish davomiyligi kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro tizim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2024 yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2025-2027 yillarda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi» ning 1-bandida vazirlik, idora va tashkilotlar tasarrufi (tizimi)dagi kollej va texnikumlarni Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufiga o'tkazish,

17-bandida negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tugatish vazifalari belgilangan.

“Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi” loyihasi ofisi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining kasbiy ta'lim tashkilotlarining amaldagi turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta'limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona texnikumlar tashkil etish to'g'risidagi taklifi maqullandi va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish, o'qitish yakuni bo'yicha beriladigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni xorijiy davlatlarda tan olinishini ta'minlash ko'zda tutildi.

Hozirgi kunda professional ta'lim tizimi uch turdagi muassasalar - 333 ta kasb-hunar maktabi, 227 ta texnikum va 112 ta kollejdand iborat. Unga ko'ra, endi kasb-hunar maktablari va kollejlar o'rniga 600 ta texnikum tashkil etiladi. Maqbullashtirish natijasida bo'shaydigan 71 ta muassasa binosi esa maktablarga aylantiriladi.

Texnikumlarda:

- kadrlar tayyorlash Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi va O'zbekiston milliy malaka tizimi talablariga mos ravishda tashkil etiladi;

- boshlang'ich o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha va kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi, shuningdek, malaka va kompetensiyalar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi;

- boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o'quvchilar uchun – davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun – to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

- o'rta va o'rta-maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash davlat granti va to'lov-kontrakt asosida tashkil etiladi;

- turli darajadagi kasbiy ta'lim dasturlarining o'zaro muvofiqligi va uzviyligi ta'minlanadi hamda ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish muddatlari o'quvchi tomonidan oldin o'zlashtirilgan modullardan kelib chiqib belgilanadi;

- o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarining bitiruvchilariga o'zlashtirgan modullari, to'plagan kreditlari va oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning tegishli bosqichidan o'qishni davom ettirishga ruxsat etiladi.

Bundan tashqari qaror loyihasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlari ishtirokida to'lov-kontrakt asosidagi qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish belgilab qo'yildi. Yana mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga, ushbu dastur va kurslarning ta'lim tili va o'qitish qiymatini mustaqil belgilashga kelishib olindi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xalqaro ta'lim dasturlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy hamkor ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda quydagilarni amalga oshiradi:

- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, texnikumlarda o'qitiladigan kasb va mutaxassisliklarni belgilash;
- xorijiy hamkor ta'lim tashkilotlari tavsiyalari asosida xalqaro ta'lim dasturi bo'yicha o'qishga qabul qilinadigan o'quvchilarni saralab olish;
- kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy va mahalliy ish beruvchilar hamda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boorish;
- texnikumlarga rahbar va pedagog xodimlarni ishga qabul qilish;
- Xalqaro ta'lim dasturlarida tahsil olgan o'quvchilarning doimiy egallagan kasbiy malakasini tahlil qilish hamda ularning bilimlarini yakuniy baholashdan o'tkazib borish;
- mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borish orqali xalqaro ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning ishga joylashishiga ko'maklashish kabilar nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, texnikumlarning akademik mustaqilligi kengaytirilib, o'quv jarayoni kasb murakkabligi va o'quvchining darajasiga qarab tashkil etiladi.

XULOSA

Shunday qilib, ta'lim muassasamiz- G'ijduvon tuman 3-son kasb-hunar maktabi endilikda 2025-yil 1-yanvardan G'ijduvon tuman 3-son politexnikumga aylantiriladi. Ta'lim muassasasida quyidagi yo'nalishlarda o'quvchilar tahsil oladilar:

- Avtomobillarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish;
- Axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari;
- Elektromontyor;
- Qurilish mashinalari operatori;
- Payvandlovchi (elektrgazpayvandlash ishlari).

Shuningdek, Xalqaro ta'lim dasturlaridan kelib chiqib, kasbiy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoriga tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi. Politexnikumdagi ishlab chiqarish ta'limi ustalari, maxsus fan o'qituvchilari hamda umumta'lim fan o'qituvchilari 2024-2025-o'quv yili davomida o'z mehnat faoliyatlarini rivojlantirgan holda kasb yo'nalishlari doirasida malaka oshirish kurslari ishtirok etib, fanga doir malaka toifalarini olib kelmoqdalar. O'quvchilar bilimini baholashning yangi tartibini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh shakllantirildi.

Xorijiy tashkilot bilan xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish bo'yicha

Kanadaning Niagara kolleji va Rossiya Federatsiyasi Qozon shahrida joylashgan Alabuga Politexnikumi bilan hamkorlik bitimlari imzolanilishi ko'zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida” gi № PF -158 Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25-yanvardagi “Umumiy o’rta, maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5313-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to’g’risidagi qonuni 2020 yil 19-may q.q.

internet saytlar:

1. <https://avlod.media>
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. gazeta.uz